

KAPITAL BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403313>

Nomozov Samandar

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil
izlanuvchisi*

Kapital bozorida tijorat banklar ishtirokini faollashtirishning shart-sharoitlari kapital bozori zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida, bo'sh moliyaviy resurslarni foydali joylashtirishni xohlovchi investorlarning hamda investitsiyalarga ehtiyoj sezgan va jozibali investitsiya loyihibalariga ega bo'lgan emitentlarning manfaatlarini uyg'unlashtirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi kapital bozorida tijorat banklarining investitsion faoliyatini va faolligini rivojlantirish va istiqbollarini belgilashda davlat tomonidan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan bank tizimini shakllantirish, tijorat banklarining moliya bozorlarida, jumladan kapital bozoridagi rolini faollashtirish, ularning faoliyatini jahon banklari amaliyotiga yaqinlashtirish va pirovard natijada, tijorat banklarining ichki va xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligini yuqori darajasiga erishish davlat tomonidan bank tizimini isloh qilishning strategik maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun, tijorat banklarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish, tijorat banklarining yanada aksiyadorlashtirish, banklarga rahbarlik qilishda aksiyadorlarning rolini oshirish yo'li bilan korporativ boshqarish tizimini mustahkamlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi kapital bozoridagi tijorat banklarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish yo'lidagi asosiy vazifalardan biri – bu bozorning axborot shaffofligi darajasini oshirishdan iboratdir, ya'ni tegishli axborotga qiziqishi paydo bo'lgan shaxslar uni olishda teng huquqqa ega bo'lishlaridir. Ushbu masalani yechishda kapital bozoriga oid axborot shaffoflik tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Investorlar tomonidan qo'yilgan asosiy shartlardan biri bo'lib emitentlar va ularning qimmatli qog'ozlar haqidagi axboroti sifat darajasining

oshishidir. Har bir investor qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ ajratishdan oldin emitent va qimmatli qog‘ozlar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilib riskga baho beradi. O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyati aynan shunga qaratilgan.¹ Shu bilan birga axborot shaffofligi samaradorligini oshirish uchun asosan axborot kanallarini kengaytirish, axborot tahliliy tarmoqlar faoliyatini diversifikatsiya qilish, ixtisoslashda nashrlarni qo‘llab-quvvatlash, yagona axborot tizimini yaratishlozim.

Iqtisodiyotga yo‘naltirilgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsion jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish borasida:

- iqtisodiyotning realsektori korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo‘yicha investitsion loyihalarini, jumladan hududlarni rivojlantirish dasturlariga kiritilgan loyihalarni kreditlash hajmlarini yil mobaynida 30 foizga ko‘paytirish;

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi hamda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sinqilik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019 yil 24 yanvardagi PQ-4127-sod Qarori

oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdag'i xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'riliши lozim.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bank sektori faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

- moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lмаган funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish;

- kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejyerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

- davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo'lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarini bir vaqtning o'zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish;

- yetarli darajada xizmat ko'rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat

ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligrini va sifatini oshirish.

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini tashkil etish modelini bo‘lgan omillar xususida to‘xtalish maqsadga muvofiqligini inobatga olib, ularning asosiyilari haqida qisqacha mulohaza yuritishga harakat qilamiz:

—bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini tizimli modeli moliya bozorlarining rivoji va holati bilan bevosita bog‘liq holda rivojlanishga kuchli ehtiyojning mavjudligi. Tahlillar va tadqiqotlar natijasida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha qisqa (o‘rta) va uzoq (strategik) muddatga mo‘ljallangan siyosatning mavjud emasligi. Ta’kidlash joizki tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida operatsiyalari orqali barqaror va arzon manbalar hisobidan ta’minalashning ma’lum muddatga mo‘ljallangan siyosatini ishlab chiqishda tegishli manbalar zarur bo‘ladi, ya’ni banklar mazkur sohadagi asosiy maqsadi nimaga qaratilganligi, mamlakat moliya va pul resurslari bozoridagi ahvolining holati haqidagi va boshqa manbalarning mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Bunday manbalarning mavjud emasligi tijorat banklarining kapital bozoridagi ishtirokini amalga oshirish orqali banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minalash, bankning likvidlilik bilan bog‘liq muammosini zudlik bilan hal etish imkoniyatlariga ega bo‘lishi, shuningdek tegishli daromad ishlab topish kabi iqtisodiy manfaatdorligini mustahkamlashga e’tibor qaratilmagan. Mazkur tizimli modelning amaliyotga joriy etilishi ushbu yo‘nalishdagi dastlabki ziddiyatli holatlarni hal etishga xizmat qiladi.

Mahalliy va xorijiy investorlar, omonatchilar hamda mijozlarni bank faoliyatining umumiyligi strategik rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha ishonchini shakllantirish zarurligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning tajribalari hamda tadqiqot ishi jarayonida shakllantirilgan natijalar

bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat asosini iqtisodiy hamkorlar o‘zaro ishonchi tashkil qilishiga amin bo‘ldik. Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, respublikamiz tijorat banklari kapital bozoridagi ishtirokini amalga oshirishdamahalliy va xorijiy investorlar, omonatchilar hamda bank mijozlarining faol ishtirokini ta’minlash uchun eng avvalo ularning to‘liq ishonchini shakllantirishzarur.

Tadqiqotlar natijasida mazkur masalalar bo‘yicha ziddiyatli holatlarning mavjudligi, ayniqsa tijorat banklari aktivlari tarkibida yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlar ulushining pastligi, shuningdek ularning resurslari tarkibida emissiya hisobiga jalb qilingan mablag‘lar hajmining sezilarsiz darajada ekanligida ko‘rinadi. Shu bois, tijorat banklari qimmatli qog‘ozlari bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan tizimli model mazkur masalalarning ijobjiy yechimini topishda amaliy yordam beradi deb hisoblaymiz.

Bankning mahalliy hamda xorijiy moliya bozoridagi qisqa va uzoq muddatga mo‘ljallangan faoliyat yuritish strategiyasiga bo‘lgan ehtiyojning qondirilishi. Kuchli raqobat sharoitida har qanday bozor, ayniqsa moliya va pul bozorlarida tegishli mavqe va iqtisodiy manfaatdorlikka erishish murakkab masalalardan hisoblanadi. Buning uchun tijorat banklari qisqa va uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyasiga ega bo‘lishlari lozim. Tadqiqotlar jarayonida respublikamiz tijorat banklarida bu kabi strategik rejalarining mayjud emasligi ham ularning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati bo‘yicha muammoli holatlarni keltirib chiqarmoqdaki, ushbu muammolarning samarali hal etilmasligi mamlakatimiz bank tizimining salohiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Shu jihatdan taklif etilayotgan tijorat banklari kapital bozoridagi ishtirokini amalga oshirishning tizimli modelini ishlab chiqish mazkur masalalarning ijobjiy yechimini topishga xizmat qiladi.